

XALQ OG‘ZAKI IJODIDA MEHNAT QO‘SHIQLARI

Axmedova Gulchexra O’skinovna

Termiz davlat universiteti

Jaxon tarixi kafedrasi dotsenti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14552721>

Annotatsiya. Ushbu maqolada xalq og‘zaki ijodidagi mehnat qo‘shiqlari folklor jamoalarning ijrosida aytilib kelinayotgan Kavushim, Oshpaz qo‘shig‘i, Novoylar qo‘shig‘i, Xavor-xavor, Temirchi, Do‘ppim va boshqalar haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Kavushim, Oshpaz qo‘shig‘i, Novoylar qo‘shig‘i, Xavor-xavor, Temirchi, Do‘ppim, mehnat qo‘shiqlar.

LABOR SONGS IN FOLKLORE

Abstract. This article presents information about the labor songs in folkloric art performed by folklore groups: Kavushim, Oshpaz ko’shigi, Novoylar ko’shigi, Khavor-khavor, Temirchi, Doppim, etc.

Keywords: Kavushim, Oshpaz ko’shigi, Novoylar ko’shigi, Khavor-khavor, Temirchi, Doppim, labor songs.

ТРУДОВЫЕ ПЕСНИ В НАРОДНОМ УСТНОМ ТВОРЧЕСТВЕ

Аннотация. В статье собраны сведения о трудовых песнях в народном творчестве, таких как «Кавушим», «Поварская песня», «Новоильарская песня», «Хавор-хавор», «Темирчи», «Доппим» и др., исполняемых фольклорными коллективами.

Ключевые слова: Кавушим, поварская песня, песня Нового, Хавор-хавар, Темирчи, Доппим, трудовые песни.

Mehnat qo‘shiqlari qadimiylar tushunchalar bo‘lib, balo-qazolardan asrash haqidagi tasavvurlar dehqonlarga xos soddadillik bilan o‘z ifodasini topgan. Buni biz chorvachilikdagi mehnat qo‘shiqlarda ham kuzatishimiz mumkin. Ularda chorvadorlar mehnati, turli hayvonlarga inson munosabati, ish faoliyati (sog‘ish, ip yigirish "Charx", junni qayta ishlash "O‘rmak") tasvirlanadi. Surxon vohasida kasb va hunarga bag‘ishlangan mehnat qo‘shiqlari ham saqlanib, turmush va mehnat jarayonida, ayniqsa, folklor jamoalarning ijrosida aytilib kelinayotgan Kavushim, Oshpaz qo‘shig‘i, Novoylar qo‘shig‘i, Xavor-xavor, Temirchi, Do‘ppim va boshqalar shular jumlasidan.

Navro‘z- Ota –bobolarimiz tomonidan yaratilgan “Navro‘z”, “Sumalak” va “Yo ramazon” singari xalq ijodi merosi ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

Navro‘z bayrami keyingi yillarda keng nishonlanmoqda. Respublikamizda, jumladan, viloyatimizda bu marosim haqiqiy mehnat va bahor bayrami sifatida shodiyonalik jarchisi bo‘lib, har bir xonodon va qalbga baxt olib kirmoqda. Navro‘z va sumalak rivoyatlari hamda u bilan bog‘liq ko‘pgina urf-odatlarni keksalarimiz tilidan yozib olingan. Sumalak Navro‘zning ramziy taomlaridan hisoblanadi.

Bir inson umrichalik davr xalqlarning milliy “Navro‘z” bayrami sun’iy ravishda barham topdi. O‘tkinchi siyosatlar uni tarbiyamizga yot deb qaradilar. U ota-bobolarimiz qalbida cho‘kib yotdi, qatlandi, ammo xotiralaridan butunlay o‘chib ketmadii.

“Oltin zanglamas” deganlaridek,, bu ziyo sandiqlari aksincha o‘z qimmatini va qadrini oshira bordi. Endi ular daryo kabi to‘lg‘anib oqmoqda. Undan chanqoq qalblar bahra olmoqda.

Borlari ham yangi to‘qilgan she’rlar¹.

Shoxmoy mehnat marosimlari - Bu marosim xalqimizning qadimiy mehnat marosimlaridan biridir. Qo‘sish haydash, Shoxmoyilar, Ko‘schi; Ekin ekish don septi; xosil yig‘ib terimida - Yozi o‘roqchi, Oblo baraka; g‘alla yanchilishda-Maydayoqi Galagov; donni qayta ishslashda - Yorg‘ichoq, Tegirmon qo‘srig‘i, "Yorg‘ichoq" qo‘srig‘idan tashqari hammasi erkaklar tomonidan ijro etilib kelingan, yakka aytimda: Bundagi asosiy g‘oya turmushni yaxshilashga intilish, galagovga qo‘shilgan ho‘kizga munosabat bildirish. Qo‘sinqning har bir misrasida hayajonli nidolar takrorlanishi naqarot vazifasini bajaradi: Xalq dalada, yig‘ilib, popuklar bilan bezatilib qo‘shta qo‘shilgan ho‘kizlarni olib chiqqanlar. O‘tgan yilning oxirgi bog‘lam g‘allasidan pishirilgan nonni sindirib odamlarga ularashib bergenlar. Shu yurtning pokiza va bokira qizlaridan ikkitasi ikki kosada yog‘ tutganlar va yurtning oqsoqoli qo‘llarini moyga botirib ho‘kizlarning shoxini moylagan. So‘ngra eng qari kimsa oq fotiha berib birinchi egatni tortishga ruxsat bergen;

Oblo baraka-Qadimdan turkiy xalqlar xirmon ko‘tarish “Oblo baraka” marosimni har yili o‘tkazib kelishgan. Boysun nohiyasida bu marosim oxirgi marotaba 1945 yili yozda o‘tkazilgan.

Keyinchalik bu marosim ham “diniy” marosim sifatida tamg‘alanib qatag‘on qilingan.

Xirmon ko‘tariladigan kuni dondan umidvor kishilar qopi bilan xirmon ko‘tariladigan joyga kelganlar. Aytuvchining aytuviga monand atrofdagilar xirmonga baraka tilab “Oblo baraka”, deya jo‘r bo‘lib turishgan.

Don sepedi Bu qo‘sinqlar an‘anaga ko‘ra ayollar tomonidan ravon uslubda, rechitativ kalta kuyda, past ovozda, ritm ravonligida, cholg‘u jo‘rligisiz aytilgan: Ekish marosimini odatda qizlar boshlab berishgan. Chunki, ayol qadimdan ko‘payish ramzi bo‘lgan;

“Sust Xotin” marosimi qadimdan bor. Bu marosim “Sust xotin” qo‘srig‘ini aytish orqali yomg‘ir so‘rashdir. Bu xildagi marosim hozirgi kunda ham qishloqlarda o‘tkaziladi. “Sust xotin” qo‘srig‘ining turli xillari mavjud bo‘lgan. Bu qo‘sinqni ko‘pincha so‘zga chechan, ovozi baland kishilar aytishgan” Yomg‘ir bergin bizlarga, Bu musulmon ellarga. Hosillar mo‘l bo‘lsin, Yomonning uyi kuysin². Qo‘sinqlarning ko‘philagini sigir, qo‘y, echki, tuyani sog‘ish uchun erkalash ohangida aytildigan sog‘im qo‘sinqlari tashkil etadi, jumladan, “Xo‘s-xo‘s” (sigir sog‘ishda), “Turay-turay” yoki “Turam” (qo‘ylarni soqqanda va qo‘zilarni emizganda), “Chiray-chiray”(echki), “Harova” yoki “Biyo-biyo” (tuya yoki biyani sog‘ishda). Bu qo‘sinqlar an‘anaga ko‘ra ayollar tomonidan ravon uslubda, rechitativ kalta kuyda, past ovozda, ritm ravonligida, cholg‘u jo‘rligisiz aytilgan: Qo‘ylarni, echkilarni, sigirlarni sog‘ayotganda aytildigan qo‘sinqlari bor. Agar qo‘sinq aytib sog‘sa, sutini yaxshi beradi va jim tepinmasdan turadi. Masalan, echkini sog‘ayotganda aytildigan qo‘sinq; Ba’zi qo‘ylar bolasini emizmaydi. Yoniga borsa, tepib yuboradi. Shunda qo‘yga bolasini yalatish kerak va silab-silab qo‘sinq aytish kerak;

Mehnat qo‘sinqlaridagi so‘z, iboralarning takrorlanishi, ohang ravonligi musiqiylikka, ish jarayonini sezishga yordam beradi.

¹ Мустафоқулов Р. Халқ педагогикаси сарчашмаси. –Термиз:

² Мустафоқулов Р. “Халқ Педагогикаси Сарчашмаси”. Термиз.

"Qizig'i shundaki, - deb yozadi M. Alaviya, - xotinlar qo'l bilan sog'ib aytganda, sut kelishiga ohang boylanib, sog'ish musiqasi eshitiladi. Sog'ish qo'shig'ida ba'zi tovushlar takror qo'llanib, ish-harakat va undagi sutning oqishi ko'z o'ngimizga keladi". Insoniyatning ko'p asrlik umri davomida yil fasllarining tutgan o'rni benihoyat kattadir.

Folklorshunos va musiqashunos olimlar tomonidan yilning to'rt fasliga xos marosimlar o'tkazilganligi e'tirof etilgan. Bir vaqtlar respublikamiz hududlarida an'ana tarzida qish faslida «Gap-gashtak», bahor faslida «Navro'z», «Shoxmoylar», «Sust xotin», «Darvesh oshi», «Beshik to'ying muborak». Muchal to'ying qutlug' bo'lsin. «Choy momo», kuz faslida «Oblo baraka», «Shamol chaqirish» kabi mavsumiy marosimlar o'tkazilgan. «Gap-gashtak» marosimi mamlakatimiz janubiy hududlari Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlarida «gashtak», «o'tirish»³ nomi bilan atalib, bunda qadimdan ovullar, urug'lar orasida erkaklar va ayollar alohidaalohida yig'ilib, tansiq taomlar tayyorlashgan, ko'ngilxushlik qilib qo'shiq-aytimlar ijro etishgan. Qish faslida marosim tadbirlaridan gashtak va o'tirishlar ko'plab o'tkazilgan. Ularning tarbiyaviy ahamiyati ham shundaki, ayrim hollarda ushbu tadbirlarda aholining bahor mavsumi bo'yicha amalga oshiriladigan dehqonchilik va chorvachilik⁴ yumushlari kabi turli bitimlar, kelishuvlar hal etilgan. Uzoq davom etadigan qish mavsumini ulug'lovchi qo'shiqlar asosan gapgashtaklar, gurung va yig'nlarda avj olgan. Mavsumda «Qorbo'ron», «Qorxat», «Ko'k salla» va boshqa qator qo'shiqlarni ijro etishga maqbul sharoit hisoblanadi. Erta bahorda daraxtlar uyg'onib, tollar kurtak chiqarganda «Tolbargak», dala gullari ochilganda «Gul o'yin», «Oq terakmi-ko'k terak» kabi marosim o'yinlariga ehtiyoj seziladi. «Boychechak chiqibdi», «Jarchilar qo'shig'i», «Sumalak», «Navro'z ekan», «Hoy bobo», «Lolajon», «Hey lola», «Lola sayli», «O'yna lola», «Lolachada ishim bor», «Do'st bo'lamiz lolacha», «Boychechak», «Turna keldi», «Muborakbod», «Yil boshi», «Hamal», «Navro'zi oy kelip-tu», «Darveshona», «Qo'sh haydash», «Shox moylar», «Hayinchak» va boshqa qo'shiqlar sevib ijro etiladi⁵. Ayniqsa, bahor yomg'irlari ostida «Yomg'ir yog'aloq» qo'shiqlari bolalar tomonidan maroq bilan kuylangan.

«Navro'z» respublikamizda «yangi kun» sifatida nihoyatda ko'tarinkilik, shodiyona ruhiyatda keng nishonlanadi. Ajodolarimiz bahor oyi 21-martda tun va kunning tenglashishi va shu kundan kunning uzayishi, dehqonlarning dala yumushlarini boshlashi, boychechakning ilk nish urib chiqishi, qishdan eson-omon chiqqanligini katta bayram sifatida erta tongdan jarchilar (qo'shig'i) chaqirig'i bilan boshlaydilar. Bahor faslining kelinchagi bo'lmish «Navro'z» bayramini nishonlash uchun asosan tog' yon bag'ridagi serdaraxt o'tloq joylar tanlanib, erkaklar, ayollar, bolalar uchun alohida-alohida joylar ajratilgan. Jumladan, balog'at yoshiga yetgan qiz-juvonlarga daraxtzor joylarda halinchak (osiq arg'umchoq)lar tutilgan. Qizlar bayramni a'lo kayfiyatda o'tkazish uchun «Halinchak», «Lola sayli», «O'yna lola», «Lolachada ishim bor» kabi qator mavsumiy qo'shiqlarni, keksa bobo va momolarnigsh ko'nglini xushnud etish uchun «Muborakbod» qo'shig'ini kuylaganlar. Dar haqiqat, bahor fasli O'zbekistonning qishloq joylarida yashovchi aholini yangi mehnat sari chorlashga kuch-quvvat beruvchi fasl sifatida ardoqlanadi. Yuqorida tilga olingan qo'shiqlarni deyarli hamma biladi va uni xirgoyi qilishdan hech charchamaydi.

³ Алавия М. Ўзбек халқ маросим кўшиқлари. – Т.: «Фан», 1974. –221-б.

⁴ Ахмедов Б. Кўчманчи ўзбек давлати. – Т.: «Фан», 1969.

⁵ Иброҳимов О.А. Ўзбек халқ мусика ижоди (методик тавсиялар, I қисм). – Т.; «Фан». 1994. –62-б.

REFERENCES

1. Alaviya M. O‘zbek xalq marosim qo‘schiqlari. – T.: «Fan», 1974.
2. Axmedov B. Ko‘chmanchi o‘zbeklar davlati. – T.: «Fan». 1969.
3. Ibrohimov O.A. O‘zbek xalq musiqa ijodi (metodik tavsiyalar, I qism). – T.: «Fan», 1994.
4. Yo‘ldosheva S. Barhayot an'analar. – T.: «Fan», 1999.
5. Panjiev Q. Surxondaryo viloyati o‘zbek xalq qo‘schiqchilik ijodiyoti. Dissertatsiya, 2010.
6. Habibullo o‘g‘li, R. M. (2023). SURXON VOHASI TOQCHI QAVMINING AN’ANAVIY TURMUSH TARZI.
7. To‘Rayev, S. G. O. G. L., & Raxmonov, M. X. O. G. L. (2022). BX KARMISHEVA TADQIQOTLARIDA SURXON VOHASI YUZ URUG‘LARINING ETNIK TAVSIFI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 43-51.
8. Рахмонов, М. (2023). Surxon vohasi toqchi qavmlari hududiy joylashuvining ilmiy tahlili. *История и культура центральной Азии*, 1(1), 341-344.
9. Rahmonov, M. (2023). TRADITIONAL LIFESTYLE OF THE TOKCHI PEOPLE OF SURKHAN OASIS. *Modern Science and Research*, 2(4), 720-722.